

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

**RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING ILMIY
ASOSLARI.**

O.Tolipova

Pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi PhD

M.To'rayeva

Pedagogika yo'nalishi magistiri

Qo'gon Davlat universiteti

Annotatsiya: *ushbu maqola rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarining ilmiy va nazariy asoslarini yoritish bilan birga bir qancha pedagog va didaktikshunos olimlarning rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasiga oid yondoshuvlarini o'zida ifodalaydi.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim texnologiyalari, rivojlantiruvchi ta'lim, rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari, rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillari.*

Аннотация: *В статье, наряду с освещением научно-теоретических основ технологий развития образования, представлены подходы ряда ученых-педагогов и дидактов к технологиям развития образования.*

Ключевые слова: *Образовательные технологии, развивающее обучение, развивающие образовательные технологии, принципы развивающего обучения.*

Abstract: *The article, along with coverage of the scientific and theoretical foundations of educational development technologies, presents the approaches of a number of educational scientists and didacticians to educational development technologies.*

Keywords: *Educational technologies, developmental learning, developmental educational technologies, principles of developmental learning.*

Hozirdi rivojlangan ta'lim negizida asosiy e'tibor ta'lim oluvchi shaxsini faollashtirish, uni ta'lim olishga nisbatan imkoniyatlarini rivojlantirish bo'lib qolmoqda. Aynan shu ehtiyojni qondirishda rivojlantiruvchi ta'limning imkoniyatlari optimallashtirilganligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Talaba faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar tarkibiga muammoli o'qitish texnologiyalari, loyihaviy texnologiyalar, tanqidiy fikrlash texnologiyalari, rivojlantiruvchi texnologiyalar, o'yinli texnologiyalar kabi turlari mavjud bo'lib, bizning tadqiqotimizda rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari asosida bo'lg'usi pedagogning boshqaruvchilik faoliyatini rivojlantirish muammosi aks etgandir.

A. Abduqodirov Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarni o'quvchilarga o'zlarining fikrlash jarayonlarini ko'rish va rivojlantirishga yordam beradi. Bu texnologiyalar yordamida o'quvchilar o'z bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llashni o'rganadilar, bu esa ta'lim sifatini oshiradi deb baholaydi.[1]

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

Rivojlantiruvchi ta'lim o'quvchilarning ichki imkoniyatlari oshirish va ularni ro'yobga chiqarishga yo'naltiriladi. Rivojlantiruvchi ta'limda, ko'proq, treninglardan foydalaniladi. Treninglar ta'lim oluvchilarda muayyan bilimlarni puxta o'zlashtirish, ularni amaliyotda samarali qo'llay olishga doir ko'nikma-malakalarni shakllantirishga, bu jaraenda ularning mavjud imkoniyatlarini to'la ro'ebga chiqarishga yordam beradi. Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida rivojlantiruvchi ta'limni qo'llashda taqdimotlardan ham samarali foydalanish tajribasi to'plandi. Mazkur metod ta'lim oluvchilarda o'quv faoliyatini tashkil etishga ijodiy yondashish, o'z ustida ishlash, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi.³

Rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi I.G.Pestalossi, A.Distervega, K.D.Ushinskiylarning tadqiqotlarida ham asoslanadi. XX asrning 30-yillari boshlarida. L.S.Vigotskiy taraqqiyotlarida asosiy maqsad sifatida bolani rivojlantirishga qaratilgan ta'lim g'oyasini ilgari surdi. Uning gipotezasiga ko'ra, bilim o'rganish ta'limning yakuniy maqsadi emas, balki faqat o'quvchilarni rivojlantirish vositasidir.

L.S. Vigotskiyning g'oyalari voqelikning psixologik nazariyasiga asoslanib ishlab chiqilgan (A.N. Leontev, P.Ya. Galperin va boshqalar). Birinchi bo'lib - inson faoliyatining har xil turlari va shakllari sub'ekti sifatida bolaning mavqeini ko'tarish edi. Ushbu g'oyalarni amalga oshirish uchun birinchi urinishlar L.V.Zankov tomonidan boshlangan bo'lib, u 50-60-yillarda boshlang'ich maktablar uchun har tomonlama intensiv rivojlanish tizimini ishlab chiqdi[3].

60-yillarda rivojlantiruvchi ta'limining biroz boshqacha yo'nalishi D.B.Elkonin va V.V.Davidov tomonidan ishlab chiqilgan va eksperimental maktablar amaliyotida mujassam bo'lgan. Ularning texnologiyasi bolaning intellektual qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

"Rivojlantiruvchi ta'lim" atamasi V.V.Davidov tomonidan pedagogik nazariya va amaliyotga kiritilgan. Rivojlantiruvchi ta'lim tushuntirish-illyustrativ usul o'rnini bosadigan yangi, faol va faol o'qitish usuli sifatida tushuniladi. Ya'ni, bu xotira ekspluatatsiyasiga emas, balki fikrlash mexanizmlarini shakllantirishga asoslangan. O'quvchilar bilimlar assimilyatsiya qilinadigan va boshqariladigan fikrlash operatsiyalarini o'zlashtirishi kerak. Rivojlantiruvchi ta'lim - bu o'qitish, uning mazmuni, usullari va shakllari bola rivojlanish qonuniyatlariga asoslanadi.

V.V.Davydov va psixolog D.B.Elkoninlar tadqiqotchi psixolog Lev Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasiga tayanib, bolaning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tizimini ishlab chiqqadilar. Bu yondoshuvdan asosiy maqsad ta'lim oluvchining mustaqil fikrlashi, muammolarni tahlil qila olishi va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan edi.

³ Inayatov.U.I. Pedagogika. 1000 ta savolga 1000 ta javob. Metodik qo'llanma. Toshkent 2012-yil. 121 b.

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

V.V.Davidov ta'lim oluvchining rivojlanuvchi o'quv faoliyatini quyidagicha baholaydi: bola atrof-muhit bilan o'zaro aloqada bo'lgan mustaqil sub'ektdir; ushbu o'zaro faoliyat faoliyatning barcha bosqichlarini o'z ichiga oladi: maqsadlarni belgilash, rejalashtirish va tashkil etish, maqsadlarni amalga oshirish va natijalar tahlili ushbu jarayonning mazmunini tashkil etadi. Shunday qilib, talaba pedagogik ta'sir ob'ektidan bilish faoliyati sub'ektiga aylanadi. Rivojlantiruvchi ta'lim jarayoni shunday tuzilganki, uning davomida o'quvchi butun bilim siklini go'yo "boshdan kechirdi", uni empirik va nazariy bilimlar birligida o'zlashtirdi.

V.V.Davidov talqiniga ko'ra rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillari:

- Boshlang'ich ta'limda nazariy bilimlarning etakchi roli printsiipi.
- O'qitishning yuqori darajadagi qiyinchilik printsiipi.
- Tez sur'atlarda o'rganish printsiipi.
- O'quvchilarning o'quv jarayoni to'g'risida xabardorligi printsiipi.
- Barcha o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha maqsadga muvofiq va tizimli ishlash printsiipi.

L.V.Zankovning rivojlantiruvchi ta'lim tizimi[3]. O'quv faoliyatining asosiy motivatsiyasi kognitiv qiziqishdir. Uyg'unlashtirish g'oyasi metodikada ratsional va hissiy, faktlar va umumlashtirishlar, jamoaviy va individual, axborot va muammoli, tushuntirish va izlash usullarini birlashtirishni talab qiladi. Metodika talabani turli tadbirlarga jalb qilishni, o'qitishda tasavvur, fikrlash, xotirani, nutqni boyitishga qaratilgan didaktik o'yinlardan, munozaralardan, o'qitish usullaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

L.V.Zankov rivojlantiruvchi ta'lim uchun majburiy talablarni quyidagicha deb belgilaydi.

- 1) maqsadlar nafaqat bilim, ko'nikma va malaka balki shaxsning boshqa xususiyatlarini rivojlantirishga ham bo'ysunadi;
- 2) jamoaviy munosabatlar asosida talaba mustaqil fikrlash faoliyatiga asoslangan polilog;
- 3) o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik;
- 4) talabalarning bilim faolligini namoyon qilish uchun darsda sharoit yaratish.

Babanskiy tadqiqotlarida esa "Rivojlantiruvchi ta'lim – har bir o'quvchi yoki talabani ta'lim vositasida bir sifat bosqichidan ikkinchisiga o'tishini ta'minlovchi jarayon; har bir o'quvchining imkoniyatini hisobga olgan holda o'qitish jarayoni" sivatida namoyon bo'ladi.[2]

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasida pedotsentrik konsepsiya alohida belgilanadi. Unda asosiy e'tibor o'qish, o'rganish – bolaning faoliyatiga beriladi. Bu yondashuvning asosida J.Dyui tizimi, G.Kershenshteyner, V.Layning mehnat maktabi – XX asr boshlarida pedagogikada islohotlar davrining nazariyalari yotadi. Shuningdek, u progressiv, ya'ni faoliyat orqali o'qitish deb ham ataladi va amerikalik pedagog J.Dyui

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

nomi bilan bog'lanadi. Uning ishlari g'arb ta'limiga, ayniqsa amerika ta'limiga juda katta ta'sir ko'rsatdi.

J.Dyui o'qitish jarayonini ta'lim oluvchining ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil qilishni taklif etadi. O'qitishning maqsadi ta'lim oluvchilarning umumiy va aqliy qobiliyatlarini, turli xil malakalarini riv ojlantirish, ularni "mehnat, hayot maktabi"da o'qitishdan iborat bo'lishi lozim. Buning uchun ta'limni tayyor bilimlarni berish, yodlash va qayta takrorlash asosida emas, balki, o'quvchilarning spontan, mustaqil faoliyatida bilimlarni egallash, kashfiyot sifatida tashkil qilish lozim[4].

Bunday yondashuv bilish faoliyatini faollashtiradi va tafakkurning, muammolarni yechish malakasining, qobiliyatlarning rivojlanishini ta'minlaydi. Lekin bunday texnologiyaning barcha predmetlarga tarqalishi, absolyutlashtirilishi norozilikni keltirib chiqaradi: ta'lim oluvchidagi spontan faoliyatning yuqori baholanishi va bilim berishda ularning qiziqishlariga tayanish tizimlilikning yo'qolishiga, o'quv materialini tasodifiy tanlanishiga, vaqtning ko'p sarflanishiga, o'qitish darajasining pasayishiga olib keladi, o'quv materialini bilan chuqur ishlanilmaydi.

Xulosa qilib aytganda Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari o'zining motavatsion imkoniyatlari va individuallashtirilganligi bilan ta'limning intensivligini oshiradi. Ta'lim oluvchiga keng imkoniyatlar asosida bilish faolligiga ta'sir etadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A., Pardayev A. Ta'lim va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslubiyoti. –T.: "Tafakkur". 2014. - 366 bet.
2. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. –T.: "O'qituvchi", 1990. – 132 b. 2 Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: O'qituvchi, 2004. – 136 b
3. Sultanova.U.M. Rivojlantiruvchi ta'lim metodologiyasi va texnologiyasi. <https://cyberleninka.ru/article/n/rivojlantiruvchi-ta-lim-metodologiyasi-va-texnologiyasi>.
4. SH.S.SHoyimova. Ta'lim Texnologiyalari. Toshkent-2020yil.49-b.